

Abdulla O‘Razboyev She‘riyatida Qaytarish San‘atlari Istifodasi

Madrahimova Mashhura¹

Annotatsiya: ushbu maqolada Abdulla O‘razboyevning “Malakka maktublar” she‘riy to‘plamidagi she‘rlarda uchragan qaytarish san‘atlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: radd ul-aruz il-al ibtido, radd us-sadr il-al hashv, “Majnuntolga havas” she‘ri.

She‘riy to‘plamga baho berishda unda nimalar yaratilganiga emas, qanday yaratilganiga e‘tibor qaratish joiz. Har bir ijodkor salohiyatini belgilashda ana shu jihat muhimdir.

Ushbu maqolada Abdulla O‘razboyev qalamiga mansub “Malakka maktublar” she‘riy to‘plamidagi she‘rlarda uchragan qaytarish san‘atlariga to‘xtalib o‘tdik. “Badiiy san‘atlar ichida “Eng mumtoz va maqbullaridan biri”(Rashidi Vatvot) hisoblangan bu usul mumtoz poetikaga doir asarlarning aksariyatida radd ul-ajuz il-as-sadr, ba‘zilarida mutobiqa, ayrimlarida esa tasdir deb atalgan. Mumtoz poetikada baytning boshi sadr, oxiri ajuz yoki zarb, birinchi misraning oxiri aruz, ikkinchi misraning boshi ibtido va har ikki misraning o‘rtasi hashv deyiladi. Biz shartli ravishda qaytarish deb atagan san‘at baytdagi mazkur o‘rinlardan birida turgan so‘zning boshqa joyda takrorlanishi natijasida yuzaga keladi”.²

Radd us-sadr il-al-ibtido – bayt boshidagi so‘zning ikkinchi misra boshida kelishidir. Bunga “Malakka maktublar”³ to‘plamidagi quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin. “Eslatma” she‘ridan:

Quvonmog‘ing istayman, ammo

Quvonmoqqa erta, yaxshi qiz

“Men muhabbat haqda o‘ylayman” she‘ridan:

O‘ylamaslik kerak suv haqda,

O‘ylamaslik azob ko‘rinar.

“To‘ydan oldingi tilak” she‘ridan:

Borsa kelmas borar manziling

Borsa kelmas bo‘lib ketasan.

Radd ul-aruz il-al-ibtido - birinchi misra oxiridagi so‘zning keying misra boshida qaytarilishidir. “Meni olib keting, turnalar” she‘ridan:

Zor uchqundan kuyib ketdim men,

Meni olib keting, turnalar.

“Najmiddin Kubro o‘ylari” she‘ridan:

Ruhim tan ichida ravondir toki,

Toki, el uqqaydir ma‘ni so‘zimdan.

¹ Urganch davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

² Is‘hoqov Y. So‘z san‘ati so‘zligi. Zarqalam. Toshkent. 2006

³ Abdulla O‘razboyev. “Malakka maktublar”. – Toshkent: “Muharrir”, 2018. Bundan keying misollar shu manbadan olinadi.



Radd ul-aruz il-al-ajuz – birinchi misra oxiridagi sozning bayt oxirida ham kelishidir. “Majnuntolim” she’ridan:

Manam hijron aro banda,

Yurak-bagri yaro banda.

“Vido” she’ridan:

Endi qalbim tilmas pushaymon,

Konglim nedir bilmas pushaymon.

“O’tkinchidir” she’ridan:

Aysh qilkim, vasli yor otkinchidir,

Sun qadah, fasli bahor otkinchidir.

“So’fi Olloyorni oqib” she’ridan:

Qachondir sirli bir jonib ketaman,

Bir kunmas, bir kuni yonib ketaman.

“Malomatiy sozi” she’ridan:

Muhabbatli bolsa agar shoh,

Mahshargacha u muqarrar shoh.

Radd us-sadr il-al-hashv – bayt boshidagi so’zning misra o’rtasida kelishidir. “Kabutar” she’ridan:

Shirin aldov, shirin xayoldan,

Ajralmas til bilan tanglayim.

“Men ham sovuq xo’rsinib qo’ydim” she’ridan:

Tuni bilan tun-la olishgach,

Sindirib zulmatning qafasin.

O’yladim: hozir noz uyquda,

Tongni tong qotirib yotibsan.

“Talabalik yodi” she’ridan:

Oylar o’tdi oyday aylanib,

Yillar yutib ketdi birma-bir.

Radd us-sadr il-al-ajuz – sadrning ajuzda takrorlanishidir. “Malak chorlovi” she’ridan:

Uzoqlar oqibat nurli ot,

Umid ketar uzilib uzoq.

“Talabalik yodi” she’ridan:

Kuzatmoqni bahona bilib,

Seni boshdan-oyoq kuzatdim.

Birorta yo’l yo’qdir nahotki ravon,

Qadrini bilmoq-chun gul yo’q birorta.

Radd ul-hashv il-al ibtido – birinchi misradagi so’zning ibtido sifatida takror kelishidir. “Yoriltosh” she’ridan:



Ming toshlarga urildi boshim,
Toshlarimni terib ketdim men.

“Vido onlari” she’ridan:

Yengilgina sinaldik xolos,

Sinov so’ngi- vido onlari.

Radd ul-hashv il-al hashv- birinchi misraning o’rtasidagi so’zining keying misra ichida qaytarilishidir.”Iqror” she’ridan:

Sen- oysan.Olmoqqa qo’lim yetmaydi,

Oysanki,yetmaydi olmoqqa ko’zim.

“Eslatma” she’ridan:

Sen ko’zguga boqsang, ko’zgudan

Jamoling boqib o’tarman.

Radd ul-hashv il-al ajuz-misra ichidagi so’zning bayt oxirida kelishidir.”Go’zal” she’ridan:

“ Oh, go’zal” ataymiz yolg’on dunyoni,

U yolg’onchi ochumdan-da go’zal.

“Majnuntolim” she’ridan:

Nechun zolim banin bashar,

Demam asti “zamon-zolim”.

Radd ul- aruz il-al hashv- birinchi misra oxiridagi so’zning keyingi misra ichida ham kelishidir.”Tushlar she’ridan:

Kingadir aytardim tushumni,

O’ngimmi yo tushimmi_ bilsam.

“Nigoh” she’ridan:

Biri erib, kulardi biri,

Nigohning bir tashlasang agar.

Misollardan ko’rinadiki, “Malakka maktublar” she’riy to’plamida qaytarish san’atlaridan unumli va o’rinli foydalanilgan. Ko’rsatib o’tilgan she’riy san’atlar shoirning badiiy niyatini amalga oshirishda vosita bo’lgan.Abdulla O’razboyev she’riy san’atlarni fikrlar silsilasiga omuxta qilgan xolda ishlata olgan.Muhimi, ularda shaklbozlik qilishga intilish emas, fikrlarni yuksak badiiy ifodalashga bo’lgan harakat sezilib turadi.

